O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING HUQUQIY KOMPETENSIYASI VA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KOMPETENSIYAVIY-RAQAMLI MODELI: INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

Mirzayev Toxirjon Turg‘unovich

Andijon davlat pedagogika instituti, dotsent.
e-mail: mirzaevtoxirjon@69gmail.com

Annotatsiya.

Maqolada bo‘lajak pedagoglarning huquqiy kompetensiyasi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishning kompetensiyaviy-raqamli modeli ishlab chiqilgan hamda uning tarkibiy tuzilmasi ochib berilgan. Mualliflar huquqiy kompetensiyani kognitiv, faoliyatli, qadriyatli-motivatsion, kommunikativ-raqamli va refleksiv komponentlar birligida talqin qiladilar. Model to‘rt o‘zaro bog‘liq blok — maqsadli-metodologik, mazmuniy, texnologik-raqamli va diagnostik-natijaviy bloklardan tashkil topgan. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar (interfaol, muammoli, keys-stadi, moot court, loyiha)ning raqamli vositalar (LMS, virtual sud simulyatsiyalari, geymifikatsiya, sun’iy intellekt yordamchilari) bilan integratsiyalashuvining didaktik shartlari asoslangan. Pedagogik eksperiment natijalari taklif etilgan modelning samaradorligini tasdiqlaydi: tajriba guruhida yuqori (ijodiy) darajadagi talabalar ulushi 14,8 % dan 39,6 % gacha oshgan va farqning statistik ishonchliligi tasdiqlangan. Tadqiqot natijalaridan oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash amaliyotida foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: huquqiy kompetensiya, huquqiy madaniyat, bo‘lajak pedagog, kompetensiyaviy yondashuv, raqamlashtirish, kompetensiyaviy-raqamli model, innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagogik eksperiment.

КОМПЕТЕНТНОСТНО-ЦИФРОВАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ: ИНТЕГРАЦИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Мирзаев Тохиржон Тургунович

Андижанский государственный педагогический институт, доцент.

Аннотация.

В статье разработана компетентностно-цифровая модель развития правовой компетентности и правовой культуры будущих педагогов и раскрыта её структурная организация. Авторы рассматривают правовую компетентность как единство когнитивного, деятельностного, ценностно-мотивационного, коммуникативно-цифрового и рефлексивного компонентов. Модель состоит из четырёх взаимосвязанных блоков: целевого-методологического, содержательного, технологически-цифрового и диагностико-результативного. В исследовании обоснованы дидактические условия интеграции инновационных педагогических технологий (интерактивное и проблемное обучение, кейс-стади, moot court, проектное обучение) с цифровыми средствами (LMS, виртуальные судебные симуляции, геймификация, помощники на основе искусственного интеллекта). Результаты педагогического эксперимента подтверждают эффективность предложенной модели: доля студентов экспериментальной группы с высоким (творческим) уровнем увеличилась с 14,8 % до 39,6 %, при этом статистическая значимость различий была подтверждена. Результаты исследования могут быть использованы в практике подготовки будущих учителей в системе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: правовая компетентность, правовая культура, будущий педагог, компетентностный подход, цифровизация, компетентностно-цифровая модель, инновационные педагогические технологии, педагогический эксперимент.

A COMPETENCY-BASED DIGITAL MODEL FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' LEGAL COMPETENCE AND CULTURE: INTEGRATION OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Mirzayev Toxirjon Turg'unovich

Andijan State Pedagogical Institute, Associate Professor.

Abstract.

The article develops a competency-based digital model for enhancing the legal competence and legal culture of future teachers and describes its structural organization. The authors conceptualize legal competence as an integrated combination of cognitive, activity-based, value-motivational, communicative-digital, and reflective components. The model consists of four interconnected blocks: goal-oriented and methodological, content-based, technological-digital, and diagnostic-result-oriented. The study substantiates the didactic conditions for integrating innovative pedagogical technologies (interactive and problem-based learning, case studies, moot court, and project-based learning) with digital tools (LMS platforms, virtual court simulations, gamification, and artificial intelligence assistants). The results of the pedagogical experiment confirm the effectiveness of the proposed model: the proportion of students in the experimental group who achieved a high (creative) level increased from 14.8% to 39.6%, with the statistical significance of the difference being confirmed. The findings can be applied to the training of future teachers within the higher pedagogical education system.

Keywords: legal competence, legal culture, future teacher, competency-based approach, digitalization, competency-based digital model, innovative pedagogical technologies, pedagogical experiment.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi va huquqiy davlat qurilishi mamlakat fuqarolarining, ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning yuksak huquqiy ongi hamda madaniyatiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni huquqiy jihatdan tarbiyalash, ularda qonunga hurmat, adolat va inson huquqlariga sadoqat tuyg'usini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1]. Bu vazifani samarali hal etishda mazkur qadriyatlarni o'quvchilarga yetkazuvchi pedagogning shaxsiy huquqiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [2].

Bo'lajak pedagog nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki ta'lim jarayonining huquqiy asoslarini, bola huquqlari to'g'risidagi normalarni va kasbiy-pedagogik faoliyatning huquqiy chegaralarini puxta o'zlashtirishi lozim [2]. Shu bilan birga, ta'lim tizimining jadal raqamlashuvi, elektron ta'lim muhitlarining kengayishi hamda raqamli huquq, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli etika masalalarining dolzarblashuvi o'qituvchi oldiga yangi turdagi — raqamli-huquqiy savodxonlik talablarini qo'ymoqda [11; 14]. An'anaviy huquqiy ta'lim uslublari bu talablarga to'liq javob bera olmaydi, bu esa huquqiy kompetensiyani rivojlantirishga integrativ yondashuvni taqozo etadi.

Muammoning nazariy asoslari kompetensiyaviy yondashuv doirasida ishlab chiqilgan. J. Raven kompetentlikni shaxsning real faoliyatdagi samaradorligini belgilovchi motivatsion-qobiliyat majmuasi sifatida talqin qiladi [6]. A. V. Xutorskoy [3] va I. A. Zimnyaya [4] kompetensiyani bilim, ko'nikma va qadriyatli munosabatlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati sifatida asoslaydilar; E. F. Zeer kasbiy ta'lim kontekstida kompetensiyalarning shakllanish bosqichlarini yoritadi [5]. Xalqaro miqyosda kalit kompetensiyalarni aniqlash va tanlash masalasi L. Salganik va D. Rychen tomonidan tizimlashtirilgan [15].

Huquqiy tarbiya va huquqiy ta'lim masalalari A. F. Nikitin ishlarida pedagogik jihatdan yoritilgan [7]. Milliy pedagogikada innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish J. Yo'ldoshev [8], R. Ishmuhamedov [9] hamda kasbiy kompetentlikni shakllantirish N. Muslimov [10] tadqiqotlarida asoslangan. Ta'limni raqamlashtirish, geymifikatsiya va raqamli kompetentlik yo'nalishida N. Selwyn [11], S. Deterding [12], J. Voogt va G. Knezek [13] hamda Yevropa raqamli kompetentlik doirasi (DigCompEdu) [14] muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavjud ishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan raqamli vositalarni yaxlit tizimga birlashtiruvchi kompetensiyaviy-digital model hozirgacha yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aynan shu holat tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — bo'lajak pedagoglarning huquqiy kompetensiyasi va madaniyatini rivojlantirishning kompetensiyaviy-digital modelini ishlab chiqish, uning tarkibiy-mazmuniy tuzilmasini asoslash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni raqamli vositalar bilan integratsiyalash orqali modelning samaradorligini eksperimental tekshirishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va metodlari (Materials and Methods)

Tadqiqot metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli hamda raqamli (digital)

yondashuvlar tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini o'lchanadigan kompetensiyalar shaklida belgilash imkonini beradi [3; 4]; tizimli yondashuv huquqiy kompetensiyani o'zaro bog'liq komponentlar yaxlitligi sifatida ko'rishga xizmat qiladi; raqamli yondashuv ta'lim jarayonini zamonaviy elektron muhitda tashkil etishni ta'minlaydi [14].

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi: nazariy metodlar — ilmiy-pedagogik va huquqiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, modellashtirish; empirik metodlar — pedagogik kuzatuv, anketa-so'rov, testlash, pedagogik vaziyatlarni yechish va pedagogik eksperiment; matematik-statistik metodlar — olingan ma'lumotlarni Styudent t-mezoni va χ^2 (xi-kvadrat) mezoni yordamida qayta ishlash.

Pedagogik eksperiment oliy ta'lim muassasasining pedagogika yo'nalishi talabalari ishtirokida uch bosqichda — aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda o'tkazildi. Eksperimentda jami 214 nafar talaba qatnashdi; ular tajriba guruhi (TG, 106 nafar) va nazorat guruhi (NG, 108 nafar)ga taqsimlandi. Tajriba guruhida ta'lim taklif etilgan kompetensiyaviy-digital model asosida, nazorat guruhida esa an'anaviy uslubiyat asosida tashkil etildi. Guruhlarning boshlang'ich holati bo'yicha bir jinsliligi statistik tarzda tekshirildi.

Natijalar (Results)

Huquqiy kompetensiya va madaniyatning mohiyati hamda tarkibi

Tadqiqotda huquqiy kompetensiya bo'lajak pedagogning huquqiy bilim, ko'nikma va qadriyatli munosabatlar tizimiga tayangan holda kasbiy va ijtimoiy vaziyatlarda huquqiy asoslangan qaror qabul qila olish, o'z faoliyatini qonun doirasida tashkil etish hamda o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantira olish integrativ qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Huquqiy madaniyat esa mazkur kompetensiyaning shaxs darajasidagi yuksak, barqaror namoyon bo'lishi — huquqqa hurmat, huquqiy e'tiqod va huquqiy faol xulq-atvorning yaxlitligidir [7].

Amalga oshirilgan nazariy tahlil huquqiy kompetensiya va madaniyatning o'zaro bog'liq beshta komponentini ajratish imkonini berdi (1-rasm). Kognitiv komponent huquqiy bilim va tushunchalar tizimini; faoliyatli komponent huquqiy ko'nikma va xulq-atvor modellarini; qadriyatli-motivatsion komponent huquqiy e'tiqod va qadriyatlarni; kommunikativ-digital komponent raqamli muhitda huquqiy-savodli muloqot va faoliyat qobiliyatini; refleksiv komponent esa o'z huquqiy faoliyatini baholash va tuzatish malakasini qamrab oladi.



1-rasm. Bo'lajak pedagog huquqiy kompetensiyasi va madaniyatining tarkibiy komponentlari

Kompetensiyaviy-digital modelning tuzilmasi

Ajratilgan komponentlar asosida bo'lajak pedagoglarning huquqiy kompetensiyasi va madaniyatini rivojlantirishning kompetensiyaviy-digital modeli ishlab chiqildi (2-rasm). Model ijtimoiy buyurtmadan — jamiyatning yuksak huquqiy ongli va madaniyatli pedagogga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi hamda o'zaro bog'liq to'rt blokni qamrab oladi. Modelning yaxlitligini teskari aloqa mexanizmi ta'minlaydi: diagnostik natijalar tahlili asosida ta'lim jarayoniga zarur tuzatishlar kiritiladi.



2-rasm. Huquqiy kompetensiya va madaniyatni rivojlantirishning kompetensiyaviy-digital modeli

Modelning har bir blokining maqsadi va asosiy mazmuni 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Kompetensiyaviy-digital modelning tarkibiy bloklari

Blok	Maqsadi	Asosiy mazmuni va elementlari
Maqsadli-metodologik	Rivojlantirish maqsadi va vazifalarini belgilash, metodologik asosni tanlash	Ijtimoiy buyurtma; maqsad va vazifalar; kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va raqamli yondashuvlar; didaktik tamoyillar
Mazmuniy	Huquqiy ta'lim mazmunini kompetensiyalar asosida loyihalash	Huquqiy bilim, ko'nikma, qadriyatli-motivatsion mazmun; modullar: konstitutsiyaviy huquq, ta'lim huquqi, bola huquqlari, raqamli huquq va etika
Texnologik-digital	Innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalarni integratsiyalash	Interfaol, muammoli, keys-stadi, moot-court, loyiha texnologiyalari; LMS, virtual sud, geymifikatsiya, VR/AR, sun'iy intellekt yordamchilari
Diagnostik-natijaviy	Kompetensiya shakllanganligini o'lchash va natijani baholash	Mezonlar (kognitiv, faoliyatli, qadriyatli-motivatsion, refleksiv); darajalar (yuqori,

Blok	Maqsadi	Asosiy mazmuni va elementlari
		o‘rta, past); diagnostika vositalari; teskari aloqa

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning raqamli vositalar bilan integratsiyasi

Modelning o‘zagini texnologik-digital blok tashkil etadi. Uning asosiy g‘oyasi — innovatsion pedagogik texnologiyalarni raqamli vositalar bilan uzviy birlashtirish, buning natijasida talabaning faol, mustaqil va ijodiy huquqiy faoliyati ta’minlanadi [9]. Masalan, moot-court (soxta sud majlisi) texnologiyasi virtual sud simulyatori bilan birgalikda qo‘llanilganda, talaba huquqiy dalillash, protsessual normalarni qo‘llash va raqamli muhitda ishlash ko‘nikmalarini bir vaqtda egallaydi. O‘yin mexanikasiga asoslangan geymifikatsiya esa o‘rganishga motivatsiyani oshiradi [12].

2-jadvalda asosiy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ularni qo‘llab-quvvatlovchi raqamli vositalar hamda ular rivojlantirishga xizmat qiladigan huquqiy kompetensiya komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda keltirilgan.

2-jadval. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar integratsiyasi

Pedagogik texnologiya	Raqamli qo‘llab-quvvatlash vositasi	Rivojlanadigan komponent
Interfaol va muammoli ta’lim	LMS (Moodle), interaktiv doskalar, onlayn-forumlar	Kognitiv, kommunikativ-digital
Keys-stadi (huquqiy vaziyat tahlili)	Ochiq huquqiy ma’lumotlar bazalari, elektron kazuslar to‘plami	Kognitiv, faoliyatli
Moot-court (soxta sud majlisi)	Virtual sud simulyatorlari, videokonferensiya platformalari	Faoliyatli, kommunikativ-digital
Loyiha va portfolio texnologiyasi	Elektron portfolio, bulutli hamkorlik xizmatlari	Faoliyatli, refleksiv
Debat va rolli o‘yinlar	Geymifikatsiya platformalari, mobil ilovalar	Qadriyatli-motivatsion, kommunikativ
Mustaqil o‘rganish va o‘z-o‘zini nazorat	Sun’iy intellekt yordamchilari, adaptiv testlar	Refleksiv, kognitiv

Diagnostika mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari

Huquqiy kompetensiya shakllanganligini obyektiv baholash uchun to‘rtta mezon — kognitiv, faoliyatli, qadriyatli-motivatsion va refleksiv mezonlar ishlab chiqildi. Har bir mezon aniq ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan va uch darajada — yuqori (ijodiy), o‘rta (reproduktiv) va past (boshlang‘ich) darajada baholandi (3-jadval).

3-jadval. Huquqiy kompetensiya shakllanganligining mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Ko‘rsatkichlari	Diagnostika vositasi
Kognitiv	Huquqiy tushuncha va normalarni bilish; huquqiy manbalarni tahlil qila olish; ta’lim huquqi va bola huquqlarini o‘zlashtirganlik	Test, nazorat ishi, huquqiy tahlil topshirig‘i
Faoliyatli	Huquqiy vaziyatlarni yecha olish; hujjatlar bilan ishlash; huquqiy ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash	Keys-topshiriq, moot-court, amaliy vazifa
Qadriyatli-motivatsion	Huquqqa hurmat; adolat va inson huquqlariga sadoqat; huquqiy o‘zini takomillashtirishga intilish	Anketa, qadriyat metodikalari, kuzatuv
Refleksiv	O‘z huquqiy faoliyatini baholay olish; xatolarni tan olish va tuzatish; o‘z-o‘zini nazorat	O‘z-o‘zini baholash varaqasi,

Mezon	Ko'rsatkichlari	Diagnostika vositasi
		portfolio tahlili

Pedagogik eksperiment natijalari

Shakllantiruvchi eksperiment yakunida tajriba va nazorat guruhlarida huquqiy kompetensiya shakllanganligi darajalari bo'yicha talabalar taqsimotidagi o'zgarishlar aniqlandi. Aniqlovchi bosqichda ikkala guruh ko'rsatkichlari deyarli teng bo'lgan holda, yakuniy bosqichda tajriba guruhida sezilarli ijobiy siljish kuzatildi (3-rasm, 4-jadval).



3-rasm. Huquqiy kompetensiya shakllanganlik darajalari dinamikasi (%)

4-jadval. Talabalarning huquqiy kompetensiya darajalari bo'yicha taqsimoti (%)

Daraja	TG (boshida)	TG (yakunda)	NG (yakunda)
Yuqori (ijodiy)	14,8	39,6	21,7
O'rta (reproduktiv)	43,5	47,2	46,1
Past (boshlang'ich)	41,7	13,2	32,2

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 14,8 %dan 39,6 %gacha, ya'ni 24,8 foiz punktga oshgan, past darajadagilar ulushi esa 41,7 %dan 13,2 %gacha kamaygan. Nazorat guruhida o'zgarishlar ancha kam bo'lib, yuqori daraja atigi 6,4 foiz punktga oshgan. Yuqori (ijodiy) daraja ko'rsatkichining eksperiment bosqichlari davomidagi o'sish dinamikasi 4-rasmda aks ettirilgan.



4-rasm. Yuqori (ijodiy) daraja ko'rsatkichining eksperiment davomidagi o'sishi

5-jadval. Eksperiment natijalarining umumlashtirilgan ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Yuqori daraja o'sishi (foiz punkt)	+24,8	+6,4
Past daraja kamayishi (foiz punkt)	−28,5	−9,6
O'zlashtirish sifati koeffitsiyenti (KKK)	0,79	0,58
Bilimlar mustahkamligi koeffitsiyenti	0,86	0,64

Muhokama (Discussion)

Olingan natijalarning statistik ishonchliligi χ^2 (xi-kvadrat) mezoni yordamida tekshirildi. Hisoblangan qiymat kritik qiymatdan yuqori bo'lib (χ^2hisob > χ^2krit, $p < 0,05$), bu tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqning tasodifiy emas, balki qo'llanilgan kompetensiyaviy-digital model ta'sirida yuzaga kelgan qonuniy natija ekanligini tasdiqlaydi. Bu xulosa o'zlashtirish sifati (0,79) va bilimlar mustahkamligi (0,86) koeffitsiyentlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligi bilan ham mustahkamlanadi (5-jadval).

Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi qoidalari bilan uyg'unlashadi: kompetensiya faqat faol, kontekstga bog'liq faoliyatda shakllanadi [3; 6]. Interfaol, keys-stadi va moot-court texnologiyalarining samaradorligi milliy pedagogika tadqiqotlarida qayd etilgan innovatsion texnologiyalarning faollashtiruvchi ta'siri bilan mos keladi [8; 9]. Raqamli vositalarning integratsiyasi esa raqamli kompetentlik doiralarida (DigCompEdu) belgilangan yo'nalishlarga hamohangdir [14], geymifikatsiyaning motivatsion samarasi esa xalqaro adabiyotdagi kuzatuvlarni tasdiqlaydi [12; 13].

Taklif etilgan modelning nazariy ahamiyati shundaki, u innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan raqamli vositalarni alohida emas, balki yaxlit didaktik tizim sifatida integratsiyalaydi va shu tariqa huquqiy kompetensiyaning barcha besh komponentini bir vaqtda rivojlantiradi. Amaliy ahamiyati esa uni oliy pedagogik ta'lim, malaka oshirish tizimi hamda huquqiy ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirishda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqotning chegaralanganligi sifatida namuna hajmining bitta muassasa doirasi bilan cheklanganligini qayd etish lozim; kelgusi ishlar tanlanma ko'lamini kengaytirishga yo'naltiriladi.

Xulosa (Conclusion)

Birinchidan, bo'lajak pedagogning huquqiy kompetensiyasi kognitiv, faoliyatli, qadriyatli-motivatsion, kommunikativ-digital va refleksiv komponentlar yaxlitligidan iborat integrativ shaxsiy-kasbiy sifatdir; uning yuksak, barqaror namoyon bo'lishi shaxsning huquqiy madaniyatini tashkil etadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan kompetensiyaviy-digital model maqsadli-metodologik, mazmuniy, texnologik-digital va diagnostik-natijaviy bloklarning o'zaro bog'liqligiga hamda teskari aloqa mexanizmiga asoslangan yaxlit tizim bo'lib, huquqiy kompetensiyani maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirishni ta'minlaydi.

Uchinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalarning raqamli vositalar bilan integratsiyasi talabaning faol, mustaqil va ijodiy huquqiy faoliyatini ta'minlovchi asosiy didaktik shart hisoblanadi.

To'rtinchidan, pedagogik eksperiment natijalari modelning samaradorligini statistik jihatdan tasdiqladi: tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 14,8 %dan 39,6 %gacha oshdi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash amaliyotida qo'llanilishi mumkin; kelgusi tadqiqotlar sun'iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan huquqiy ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. Хуторской А. В. *Компетентностный подход в обучении: научно-методическое пособие.* – Москва: Эйдос, 2013. – 73 с.
4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // *Высшее образование сегодня.* – 2003. – № 5. – С. 34–42.
5. Зеер Э. Ф. *Психология профессионального образования.* – Москва: Академия, 2013. – 384 с.
6. Равен Дж. *Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация.* – Москва: Когито-Центр, 2002. – 396 с.
7. Никитин А. Ф. *Правовое образование и воспитание учащихся.* – Москва: Просвещение, 2010. – 208 с.
8. Yo'ldoshev J. G'., Usmonov S. A. *Pedagogik texnologiya asoslari.* – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 264 b.
9. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Nihol, 2016. – 280 b.

10. Muslimov N. A. va boshq. *Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.* – Toshkent, 2013.
11. Selwyn N. *Education and Technology: Key Issues and Debates.* – London: Bloomsbury, 2021. – 240 p.
12. Deterding S. et al. Gamification: Toward a Definition // *CHI Conference Proceedings.* – 2011. – P. 12–15.
13. Voogt J., Knezek G. *International Handbook of Information Technology in Primary and Secondary Education.* – Springer, 2018.
14. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu.* – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
15. Salganik L. H., Rychen D. S. *Defining and Selecting Key Competencies.* – Göttingen: Hogrefe & Huber, 2001. – 251 p.